



ENVIRONMENTAL CRIMES AND THEIR PROSECUTION IN ACCORDANCE WITH THE LAW

Sitora Ayonovna Azamova

*Shakhrisabz State Pedagogical University
Teacher of Department of Social Sciences Phd
E-mail: azamovasitora04@gmail.com
Shakhrisabz, Uzbekistan*

Zarina Arolova

*Shakhrisabz State Pedagogical University
Student of Department of Social Sciences
E-mail: zarinaaralova010@gmail.com
Shakhrisabz, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Environmental crimes, offense (violation), special and general, Constitution, code, law.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article discusses the environmental problem that is increasingly becoming a global issue today, the causes of its emergence, and the illegal activities related to environmental crimes. It also lists the types of liabilities established in our legislation against environmental crimes. The article reflects on the increasing number of crimes against the use of natural resources and environmental protection, and their significance for the development of our country.

EKOLOGIK JINOYATLAR VA ULARNING QONUNGA MUVOFIQ JAVOBGARLIKKA TORTILISHI

Sitora Ayonovna Azamova

*Shakhrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi (Phd)
E-mail: azamovasitora04@gmail.com
Shakhrisabz, O'zbekiston*

Zarina Arolova

*Shakhrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: zarinaaralova010@gmail.com
Shakhrisabz, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Ekologik jinoyatlar, huquqbuzarlik, maxsus va umumiy, konstitutsiya, kodeks, qonun.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda global muammoga aylanib borayotgan ekologik muammo va ushbu yechimni kelib chiqish sabablari, hamda ekologik jinoyatlarning qonunga zid ravishda faoliyati haqida muhokama qilingan. Ekologik jinoyatga qarshi qonunchiligimizda ishlab chiqilgan, javobgarliklarning turlari sanab oʻtilgan. Tabiatdan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishga qarshi jinoyatlar soni oshib borayotganligi, mamlakatimiz rivojlanishida nechogʻlik ahamiyati mavjudligi toʻgʻrisida fikr yuritilgan.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И ИХ ПРИВЛЕЧЕНИЕ К ОТВЕТСТВЕННОСТИ В СООТВЕТСТВИИ С ЗАКОНОМ

Ситора Аёновна Азамова

Преподаватель кафедры социальных наук, PhD

Шахрисабзский государственный педагогический институт

E-mail: azamovasitora04@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

Зарина Аролова

Студентка Шахрисабзский государственный педагогический институт

E-mail: zarinaaralova010@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологические преступления, правонарушение, специальные и общие, Конституция, кодекс, закон.

Аннотация: В данной статье рассматривается экологическая проблема, которая в настоящее время становится глобальной, причины её возникновения, а также незаконная деятельность, связанная с экологическими преступлениями. Перечислены виды ответственности, предусмотренные нашим законодательством за экологические преступления. Также рассматривается рост числа преступлений против использования природных ресурсов и охраны окружающей среды и их значение для развития нашей страны.

Kirish. XXI asrda global muammolardan biri bu ekologik muammodir. Ushbu global muammoning kelib chiqish sabablari albatta, oldini olinmagan jinoyatlarda oʻz aksini topadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ekologik jinoyatlar hali hanz yo‘q bo‘lib ketgani yo‘q. Xususan, avvalo ekologik jinoyat nima? degan savolga javob berib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar – tabiatdan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishga qarshi jinoyatlar. Ekologiya insonni tabiat bilan bog‘lab turadigan ijtimoiy holatdir. Bunday bog‘liqlik, o‘z navbatida, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar orqali huquqbuzarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu xildagi huquqbuzarliklar ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ekologik jinoyatlar sodir etilishining asosiy maqsadi, shaxslarning o‘z manfaatini ko‘zlagan holda jinoyatga qo‘l urishdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligida ham ekologik jinoyatlarning amalga oshirilishi, mamlakat xvfsizligiga qarshi jinoyatlar turiga kirishi belgilangan. Bu borada mamlakatimiz Qonunchiligiga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritildi va ularning yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq tarzda bayon etilganligi, taqsiinga sazovordir.

Ekologik jinoyatlar – bu atrof-muhitga zarar yetkazuvchi, tabiiy resurslardan noqonuniy foydalanish yoki ekologik me‘yorlarni buzish bilan bog‘liq ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Bunday jinoyatlar nafaqat tabiatga, balki inson salomatligi va iqtisodiyotga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik kuchaytirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida bir qancha qonunlar, qarorlar va kodekslar ishlab chiqilgan. Mansabdor shaxs tomonidan zararli ekologik oqibatlariga olib klegan avariyaalar, aholining salomatligiga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish aniq bo‘lgan atrof tabiiy muhitning ifloslanganligiga doir axborotni atayin yashirganlik yoki buzib ko‘rsatganlik, uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki ikki yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlariga jalb etish, uch million so‘mgacha jarima solish bilan jazolanadi”. Qonunda keltirilgan moddalardan ham ayonki, ekologik jinoyat butun bir mamlakatda ta‘siri bilinadi. Xuddi shu qonunning 97-1-modda. Atrof tabiiy muhitni tiklash, tabiiy resurslarni qayta hosil qilish va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralari ko‘rmaslik: Atrof tabiiy muhitni tiklash, tabiiy resurslarni qayta hosil qilish va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralari ko‘rmaslik- fuqarolarga uch yuz so‘mgacha va mansabdor shaxslarga bir million so‘mgacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi” [2;76].

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida keltirilgan “ Atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish” muhim ekanligi ta‘kidlangan [1]. Bu Qomusimizdagi ushbu moddalar O‘zbekistonning butun hududida so‘zsiz tan olinadi va amalilyotga qo‘llaniladi. S.Buriyev, D.Maxkamova, V.Sherimbetovlarning “Ekologiya

va atrof-muhit muhofazasi” kitobida atrof muhitni va ekologiyani toza saqlashda xavfsizlik choralari va ekologik jinoyatlar uchun jazolardan namunalar keltirib o‘tilgan [3]. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi qonunchiligida ham, atrof-muhitni toza saqlash va ekologik jinoyatlarni oldini olish, hamda ushbu jinoyatlarning sodir etilish foizini kamaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu qonunchilikda yangicha ekologik huquqbuzarliklarga jazo-choralari yaratilganligi belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Ekologik jinoyatlarning bir qancha turlari mavjud: atrof-muhitni zararlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, havoni ifloslantirish, yo‘qolib borayotgan noyob o‘simlik va hayvonlarga zarar yetkazish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va hokazo. Davlat darajasida ham tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo‘yicha qonunlar qabul qilinmoqda, turli ekologik dasturlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu boradagi muvaffaqiyat faqat hukumatga emas, balki har bir fuqaroning ongli harakatiga bog‘liq. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin. Avvalo, tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, suvni isrof qilish suv tanqisligiga olib keladi, o‘rmonlarning kesilishi esa iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Atmosferaga zararli gazlarning chiqarilishi havoning ifloslanishiga va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [6; 126]. Shu bois har bir inson va tashkilot o‘z faoliyatida ekologik mas’uliyatni his qilishi zarur. Oqilona foydalanish deganda resurslarni tejash, ularni qayta tiklash va muqobil manbalardan foydalanish tushuniladi. Masalan, elektr energiyasini tejash, suvni behuda sarflamaslik, chiqindilarni saralab, qayta ishlash – bularning barchasi muhim qadamlar hisoblanadi. Shuningdek, quyosh va shamol kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Xususan, umummilliy boylik tushunchasi jahon konstitutsiyalari tarixida birinchi bor O‘zbekistonda qo‘llanilgan bo‘lib, u barcha turdagi mulk shaklini inobatga oladi. Lekin barcha tabiiy obyektlar o‘zbek xalqining Mulki bo‘lib, uni O‘zbekiston Respublikasi ilk bor mustaqil tasarruf etish huquqiga ega bo‘ldi. Endilikda milliy boylik bo‘lgan barcha tabiiy zaxiralardan o‘ta samaradorlik bilan foydalanish mamlakatimiz rivojining zaminidir. Shuning uchun ham davlat ularni o‘z muhofazasiga oladi. Avvalo tabiiy resurs o‘zi nima? degan savolga javob bersak.

Tabiiy resurs deb – tabiatda mavjud bo‘lgan, insonlar tomonidan yaratilmaydigan, insonning hayoti, xo‘jalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy jismlar, sharoitlar va jarayonlarga

aytiladi. Mamlakatning tabiiy resurslarga boyligi uning iqtisodini rivojlantirishning muhim sharoitlaridan biridir, aksincha zaxiralarning kamligi yoki umuman yo‘qligi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Lekin bu qonuniyat har doim to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Dunyoda shunday mamlakatlar borki, ular joylashgan hududda mineral resurslar umuman yo‘q yoki bo‘lsa ham juda oz miqdorda, shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayland va boshqalar. Bu mamlakatlarda ishchilar, muhandislar va texnik xodimlarning yuqori malakaga egaligi, fan-texnika taraqqiyoti uchun yaratilgan sharoitlar sanoatni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri deb hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha mamlakatlarda ekologik xavfsizlik tushunchasi muhim o‘rin tutadi [5; 14]. Ekologik xavfsizlik deganda atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayoti uchun ehtiyojlariga javob bera olishi, yoki insonlar uchun sog‘lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit tushuniladi.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun har bir alohida davlat ma‘lum ekologik siyosatni olib boradi. Ekologik jinoyatlarning mayda shakliga ekologik tahdidlar ham kiradi. Ekologik tahdidlar deganda atrof-muhit holati va insonlarning hayot faoliyatiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazadigan tabiiy va texnogen xarakterdagi hodisalar tushuniladi. Ekologik tahdidlarning mahalliy, milliy, mintaqaviy va global darajalari ajratiladi. Ekologik tahdidlar darajalari shartli ajratilgan. Aholining ichimlik suv bilan ta‘minlanishi, havoning ifloslanishi, chiqindilar muammosini mahalliy darajadagi ekologik tahdidlar qatoriga ham kiritish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash strategiyasi ekologiya sohasidagi shaxs, jamiyat va davlatning O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi va Konstitutsiyasida belgilangan hayotiy zarur manfaatlaridan kelib chiqadi [3; 79].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ekologik jinoyatlarni kamaytirish va xavfsizlik choralari kuchaytirish zarur. Zero ekologik muammo faqat bir shaxs yoki bir davlat uchun emas balki, butun insoniyat uchun muhimdir. Ekologik muammolarni bartaraf etish uchun qonunchiligimizda yanada yagiliklar va zamonaviy chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 461 b.

4. Azamova S. A. Problems of formation of ecological culture in the context of ecological globalization //best journal of innovation in science, research and development. – 2024. – T. 3. – №. 5. – P. 743-749.
5. Azamova S. Ekologik ta'lim va tarbiyaning rivojlanish bosqichlari //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Buriyev S., Maxkamova D., Sherimbetov V. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent. 2022. – 232 b.